



Tadqiqot.uz

# ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ТАДҚИҚОТЛАР МАВЗУСИДАГИ КОНФЕРЕНЦИЯ МАТЕРИАЛЛАРИ

2020

- » Ҳуқуқий тадқиқотлар
- » Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар
- » Тарих саҳифаларидағи изланишлар
- » Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни
- » Иқтисодиётда инновацияларнинг тутган ўрни
- » Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар
- » Педагогика ва психология соҳаларидағи инновациялар
- » Маданият ва санъат соҳаларини ривожланиши
- » Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши
- » Техника ва технология соҳасидаги инновациялар
- » Физика-математика фанлари ютуқлари
- » Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар
- » Кимё фанлари ютуқлари
- » Биология ва экология соҳасидаги инновациялар
- » Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари
- » Геология-минерология соҳасидаги инновациялар



No 23  
25 декабрь

[conferences.uz](http://conferences.uz)

**"ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ТАДҚИҚОТЛАР"  
МАВЗУСИДАГИ РЕСПУБЛИКА 23-КҮП ТАРМОҚЛИ  
ИЛМИЙ МАСОФАВИЙ ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИЯ  
МАТЕРИАЛЛАРИ  
8-ҚИСМ**

---

**МАТЕРИАЛЫ РЕСПУБЛИКАНСКОЙ  
23-МЕЖДИСЦИПЛИНАРНОЙ ДИСТАНЦИОННОЙ  
ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИИ НА ТЕМУ "НАУЧНО-  
ПРАКТИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ"  
ЧАСТЬ-8**

---

**MATERIALS OF THE REPUBLICAN  
23-MULTIDISCIPLINARY ONLINE DISTANCE  
CONFERENCE ON "SCIENTIFIC AND PRACTICAL  
RESEARCH IN UZBEKISTAN"  
PART-8**

**ТОШКЕНТ-2020**



УУК 001 (062)  
КБК 72я43

## "Ўзбекистонда илмий-амалий тадқиқотлар" [Тошкент; 2020]

"Ўзбекистонда илмий-амалий тадқиқотлар" мавзусидаги республика 23-кўп тармоқли илмий масофавий онлайн конференция материаллари тўплами, 31 декабрь 2020 йил. - Тошкент: Tadqiqot, 2020. - 27 б.

Ушбу Республика-илмий онлайн конференция 2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналишлари бўйича Ҳаракатлар стратегиясида кўзда тутилган вазифа - илмий изланиш ютуқларини амалиётга жорий этиш йўли билан фан соҳаларини ривожлантиришга бағишиланган.

Ушбу Республика илмий конференцияси таълим соҳасида меҳнат қилиб келаётган профессор - ўқитувчи ва талаба-ўқувчилар томонидан тайёрланган илмий тезислар киритилган бўлиб, унда таълим тизимида илфор замонавий ютуқлар, натижалар, муаммолар, ечимини кутаётган вазифалар ва илм-фан тараққиётининг истиқболдаги режалари таҳлил қилинган конференцияси.

**Масъул муҳаррир:** Файзиев Шохруд Фармонович, ю.ф.д., доцент.

### **1.Хуқуқий тадқиқотлар йўналиши**

Профессор в.б.,ю.ф.н. Юсувалиева Раҳима (Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети)

### **2.Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар**

Доцент Норматова Дилдора Эсоналиевна(Фаргона давлат университети)

### **3.Тарих саҳифаларидағи изланишлар**

Исмаилов Ҳусанбой Маҳаммадқосим ўғли (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси хузуридаги Таълим сифатини назорат қилиш давлат инспекцияси)

### **4.Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни**

Доцент Уринбоев Хошимжон Бунатович (Наманганд мухандислик-қурилиш институти)

### **5.Давлат бошқаруви**

PhD Шакирова Шоҳида Юсуповна (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси хузуридаги "Оила" илмий-амалий тадқиқот маркази)

### **6.Журналистика**

Тошбоева Барнохон Одилжоновна(Андижон давлат университети)

### **7.Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар**

Самигова Умида Хамидуллаевна (Тошкент вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш худудий маркази)



**8.Адабиёт**

PhD Абдумажидова Дилдора Раҳматуллаевна (Тошкент Молия институти)

**9.Иқтисодиётда инновацияларнинг тутган ўрни**

Phd Воҳидова Меҳри Ҳасанова (Тошкент давлат шарқшунослик институти)

**10.Педагогика ва психология соҳаларидағи инновациялар**

Турсунназарова Эльвира Тахировна (Навоий вилоят ҳалқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)

**11.Жисмоний тарбия ва спорт**

Усмонова Дилфузахон Иброҳимовна (Жисмоний тарбия ва спорт университети)

**12.Маданият ва санъат соҳаларини ривожлантириш**

Тоштемиров Отабек Абидович (Фарғона политехника институти)

**13.Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши**

Бобоҳонов Олтибой Раҳмонович (Сурхандарё вилояти техника филиали)

**14.Тасвирий санъат ва дизайн**

Доцент Чариеv Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

**15.Мусиқа ва ҳаёт**

Доцент Чариеv Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

**16.Техника ва технология соҳасидаги инновациялар**

Доцент Нормирзаев Абдуқаюм Раҳимбердиевич (Наманганд мухандислик-курилиш институти)

**17.Физика-математика фанлари ютуқлари**

Доцент Соҳадалиев Абдурашид Мамадалиевич (Наманганд мухандислик-технология институти)

**18.Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар**

Т.Ф.д., доцент Маматова Нодира Мухтаровна (Тошкент давлат стоматология институти)

**19.Фармацевтика**

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

**20.Ветеринария**

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

**21.Кимё фанлари ютуқлари**

Рахмонова Доно Қаҳхоровна (Навоий вилояти табиий фанлар методисти)



**22.Биология ва экология соҳасидаги инновациялар**

Йўлдошев Лазиз Толивович (Бухоро давлат университети)

**23.Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари**

Доцент Сувонов Боймурод Ўралович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

**24.Геология-минерология соҳасидаги инновациялар**

Phd доцент Қаҳҳоров Ўқтам Абдурахимович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

**25.География**

Йўлдошев Лазиз Толивович (Бухоро давлат университети)

*Тўпламга киритилган тезислардаги маълумотларнинг хаққонийлиги ва иқтибосларнинг тўғрилигига муаллифлар масъулdir.*

© Муаллифлар жамоаси

© Tadqiqot.uz

PageMaker\Верстка\Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев

Контакт редакций научных журналов. tadqiqot.uz  
ООО Tadqiqot, город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz

Tadqiqot LLC The city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Phone: (+998-94) 404-0000

**АДАБИЁТ**

<b>1. Vapayeva Ra'nobibi Shavkatbayevna</b>	
O'TKIR HOSHIMOVNING HAYOTI VA IJODI .....	7
<b>2. Atajanova Mehribon Rajabovna, Jumaniyozova Muhabbat Samandarovna</b>	
ADABIYOT DARSLARIDA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISH SAMARASI.....	9
<b>3. Mirzatillayeva Shohista Mehmonjonovna</b>	
«BOBURNOMA» ASARIDA TARIXIY SHAXSLAR TASVIRI .....	11
<b>4. Ro`ziyeva Xushvaqt Qo`ziyevna</b>	
ERUR ANDOQ VA FOSIZ UMR O`TAR OHISTA-OHISTA (MASHRAB IJODIDA TAKRIR BADIY SAN`ATINING MOHIRONA QO`LLANISHI).....	13
<b>5. Шаҳноза МАМАЮНУСОВА</b>	
ЎЗБЕК РОМАНЧИЛИГИДА ХАРАКТЕР МУАММОСИ (ЙЎЛДОШ СУЛАЙМОННИНГ “АРМОН” РОМАНИ МИСОЛИДА) .....	14
<b>6. Abbosova Shoxista Abbosovna</b>	
ALISHER NAVOIYNING “XAMSA” ASARIDA IJTIMOIY ADOLAT VA SHAXS ERKI MASALASI .....	16
<b>7. Muazzam Eshonqulova</b>	
TA'LIM TIZIMIDA ADABIYOT O'QITISH MASALALARI .....	18
<b>8. Darmonjon Sadikova Karimovna</b>	
MUHAMMAD RIZO OGАHIYNING MA'NAVIY-MARIFIY QARASHLARINI TAMINLAGAN TARIXIY SHART-SHAROITLAR .....	20
<b>9. Darmonjon Sadikova Karimovna</b>	
UMUMTA'LIM MAKtablari TIZIMIDA OGАHIY HAYOTI VA IJODINI O'QITISH MUAMMOLARI .....	22
<b>10. Sotvoldiyeva Sohibaxon Dadaxonovna</b>	
“DAHSHT” HIKOYASIDA SO‘Z BADIYATI .....	25



## АДАБИЁТ

### О’TKIR HOSHIMOVNING HAYOTI VA IJODI

*Vapayeva Ra'nobibi Shavkatbayevna  
Xorazm viloyati Xiva shahar 12-sonli  
umumi o'rta ta'lif maktabining  
Ona-tili va adabiyot, o'zbek tili fani o'qituvchisi  
Telefon: +998 (90) 558 97 76  
boburmiraabdusaripov@gmail.com*

**Annotatsiya:** Quyida berilgan ushbu ilmiy maqolada O’tkir Hoshimovning xotirasiga bag’ishlangan – Prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyevning qarorlari, adibning hayoti va ijodi, asarlari va qissalari haqida ilmiy yondashishga harakat qilingan.

**Kalit so’zlar:** Do’mbirobod, Po’lat chavandoz, Bahor qaytmaydi, sovet, Dunyoning ishlari, Milliy, Bahs, xotira, O’zbek.

O’zbekiston xalq yozuvchisi O’tkir Hoshimov tavalludining 80 yilligini keng nishonlash bo'yicha O’zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori imzolandi. Va unga ko‘ra quyidagilar belgilandi:

2021-yil avgust oyining birinchi o’n kunligida O’zbek Milliy akademik drama teatrida O’tkir Hoshimov tavalludining 80 yilligiga bag’ishlangan adabiy-badiiy xotira kechasini o’tkazish;

adibning o’zbek tilidagi “Tanlangan asarlar”ini, qoraqalpoq, rus va boshqa xorijiy tillarga tarjima qilingan asarlarini, shuningdek, “O’tkir Hoshimov zamondoshlari xotirasida” kitobini nashrqa tayyorlash va chop etish;

O’tkir Hoshimovning asarlari asosida spektakllar sahnalashtirish yova yangi filmlar yaratish va boshqalar.

Bu tadbirlar O’tkir Hoshimovning siyosini abadiylashtirishga qaratilgan ulkan siljish desak mubolag’ a bo’lmaydi.

O’tkir Hoshimov – taniqli o’zbek yozuvchisi va jamoatarbobi. 1941-yili Toshkentda Do’mbirobod mahallasida tug‘ilgan edi.

Toshkent Davlat universiteti filologiya fakultetida o’qidi. Turli tahririyat va nashriyotlarda ishladi. Shuningdek, u O’zbekiston Respublikasi Yozuvchilar qo‘mita raisi vazifasini bajardi.

Yozuvchining bolaligi urush va urushdan keyingi mashaqqatli davrga to‘g‘ri keldi. „O’sha davrda non tanqis bo‘lgani bilan kutubxonalarda kitob ko‘p edi“, deya eslagan edi yozuvchi o’z xotiralarida.

Kitob o‘qish barobarida O’tkir Hoshimov pochtada xat tarqatuvchi bo‘lib ishladi. Aynan mana shu ish O’tkir Hoshimovni oddiy odamlarning kitobdagи hayotdan butunlay boshqa turmushiga oshno qildi. Bo‘lajak yozuvchi 1964-yilda O’zbekiston Milliy universitetining filologiya fakulteti jurnalistika bo‘limini sirtdan tugatdi. U „Qizil O’zbekiston“, „Toshkent haqiqati“, „Toshkent oqshomi“ gazetalarida adabiy xodim bo‘lib ishladi.

Yozuvchining ilk asari 1962-yilda „Po’lat chavandoz“ nomida ocherklar to‘plami tarzida nashrдан chiqdi. Ammo yozuvchiga muvaffaqiyat keltirgan asar 1970-yilda nashr qilingan „Bahor qaytmaydi“ qissasi bo‘ldi. O’sha paytda nashr qilinayotgan mafkura targ‘ibotidan iborat asarlar fonida yozuvchi O’tkir Hoshimovning oddiy insoniy munosabatlar haqidagi bu asari qorong‘u osmonda chaqnagan mushak kabi eslanadi. Bu asar asosida suratga olingan videofilm o‘z vaqtida eng ko‘p tomosha qilingan asar sifatida tarixga kirdi. O’tkir Hoshimovning bir qancha asarlari ekranlashtirilgan. „Xazon bo‘lgan bahor“, „Inson sadoqati“, „Vijdon dorisi“, „To‘ylar muborak“, „Qatag‘on“ kabi drama, komediya, bir qator kinosenariylar muallifi. „Daftar hoshiyasidagi bitiklar“ kitobi ijtimoiy -ma’naviy hayotda muayyan iz qoldirgan. „Cho‘l havosi“ nomli birinchi qissasi va boshqalar.



Talabchan adib „Dunyoning ishlari“ qissasida shunday deydi – bu qissa katta-kichik novelleardan iborat. Biroq ularning barchasida men uchun eng aziz odam – onam siymosi bor. Bundagi odamlarning hammasini o’z ko’zim bilan ko’rganman. Faqat ba’zilarining ismi o’zgardi, xolos. Bu odamlarning qismati ham qaysidir jihatni bilan onamga bog’langan deb aytilgan edi.

O’tgan asrning sovet mafkurasi hukmron bo’lgan 70-yillarda O’tkir Hoshimov O’zbekiston televideniesida „Bahs“ deb nomlangan eshittirishlarni olib bordi. Bu eshittirishlar yozuvchining „Qalbingga quloq sol“, „Dunyoning ishlari“, „Nur borki, soya bor“ kabi asarlarida ko’tarilgan o’tkir ijtimoiy muammolar haqidagi bahslarning davomi bo’ldi.

Keyinchalik yozuvchi „Ikki eshik orasi“, „Tushda kechgan umrlar“ romanlarida zamondosh-asrdosh odamlar taqdirini, 20-asrning eng keskin fojaviy hodisalari Ikkinci jahon urushi hamda mustabid tuzumming jinoyatkorona siyosati oqibatlari bilan bog’liq holda tahlil va talqin etishga urindi. Hali O’zbekistonda Sovet mafkurasi hukmron bo’lgan 1990-yilda O’tkir Hoshimov o’zi bosh muharrir bo’lgan „Sharq yulduzi“ jurnalida Qur’oni karimning ilk o’zbekcha tarjimasini chop qilishga jur’at qildi.

O’sha paytdagi O’zbekiston rahbariyati zehniyatida ashaddiy ateizm mavjudligi hisobga olinsa, bu haqiqatda jasorat namunasi deya eslanadigan qadam.

Toshkentdagi „Ateizm uyi“ kabi idora vakillari Qur’on suralarida milliy kamsitish elementlari bor, deya „Sharq yulduzi“ jurnalida Qur’oni karim tarjimasini chop qilinishini to’xtatishga urinishdi. Bu to’siqlarga qaramasdan, O’tkir Hoshimov bu tarjimani to’lig‘icha jurnalning bir necha sonlarida bosib chiqara oldi. Marhum yozuvchi 2001-yili „Buyuk xizmatlari uchun“ ordeni bilan mukofotlangan edi. Bugungi kunda adibning barcha asarlari va qissalari turli tillarga jarjima qilingan. Umrining so’nggi yillarini O’tkir Hoshimov o’zbek hukumatining targ’ibot-tashviqot kampaniyalaridan xoliroqda o’tkazdi. O’zbek prozasida zamonaviy mavzularni imkon qadar mafkuradan xoli tarzda yorita olgan taniqli yozuvchi O’tkir Hoshimov 2013-yil, 24-may kuni, 71 yoshida olamdan o’tdi.

Xulosa o’rnida shuni aytish mumkinki adibning hayot yo’li juda bir murakkab davrga to’g’ri keldi shunday bo’lsada u o’zining ichki kechinmalarini qog’ozga tushara oldi.

Foydalilanigan adabiyotlar ro’yxati:

1. Rasulov A. Ardoqli adib. – T.: „Sharq“, 2001.
2. Karimov H. O’tkir Hoshimov. – T.: „Yozuvchi“, 2002.
3. Karimov N. va boshqalar. 20 asr o’zbek adabiyoti tarixi. –T.: „O’qituvchi“, 1999.



## ADABIYOT DARSLARIDA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISH SAMARASI

*Atajanova Mehrbon Rajabovna  
Xorazm viloyati Bog'ot tumani  
1-son muktab ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi  
Telefon:+998(97)4577508*  
*Jumaniyozova Muhabbat Samandarovna  
Xorazm viloyati Bog'ot tumani  
1-son muktab ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi  
Telefon:+998(99)4182970*

**Annotatsiya:** Maqlada ta'limgagi innovatsion texnologiyalar va interfaol usullarni ona tili va adabiyot darslarida foydalanish yo'llari va uning samarasi haqida ma'lumotlar berib o'tilgan.

**Kalit so'zlar:** innovatsion texnologiyalar, interfaol usullar, mustaqil fikrlesh, bahs yuritish. Sinkveyn

Bugungi shiddat bilan jadallahib borayotgan taraqqiyot davrida dunyo har daqiqada o'zgarmoqda, avlodlar. o'zgarmoqda va o'sib kelayotgan avlodning fikrlashi, dunyoqarashi turlicha va bu jarayon bugungi ta'limga tizimida o'qituvchining tinimsiz izlanishga, yangidan yangi g'oyalarni qo'llashga, ta'limga innovatsion texnologiyalardan, AKTdan foydalanish zaruratini tobora orttirmoqda. Ma'lumki, "Adabiyot" darslariga noan'anaviy darslarni olib kirish va uni ta'limga mazmuniga singdirish, dars o'tishning yangi-yangi usullarini topish Davlat ta'limga standartlari talablarini bajarishga zamin yaratadi. Inson shaxsini har tomonlama kamol toptirish, o'sib kelayotgan yosh avlodda umuminsoniy va milliy qadriyatlarga hurmat tuyg'usini uyg'otishda, milliy tilga, o'z xalqining an'analariga iftixor hissini kamol toptirishda "Adabiyot" darslarining o'rni beqiyosdir. Shunday ekan, biz ham o'z darslarimizni tashkil etishda aynan shu maqsadlarni ko'zlagan holda ish olib boramiz.

Keyingi paytlarda ilg'or tajribali o'qituvchilar tamonidan darsning seminar -dars, bahs - dars, suhbat - dars, sinov - dars, konferensiya - dars, sayohat-dars kabiturlari o'tkazilmoqda. Bunday dars turlari o'quvchining dars paytidagi loqaydligiga barham berib, unda faollikni uyg'otadi, bolani o'yashga, muhokamali fikr yuritishga, so'lashga va izlanishga hamda mehnat qilishga o'rgatadi. Buning uchun hamma vaqt o'qituvchi, o'z o'quvchilariga nisbatan ko'proq shug'ullanib, bilim va mahoratini timmay oshirib borishi zarur. Shundagina u o'z nomiga munosib faoliyat kishisi bo'ladi. Mehnatning samarasi sifatida har bir darsi mazmunli, maroqli orginalligi bilan farqli ekanligini, uning mashg'ulotlariga o'quvchilar tabora qiziqib borayotganliklarini, shogirdlarining dars jarayonida o'quv materiallarini, o'zaro ishtiyoq bilan o'rganishga kirishib faoliyk va uyushqoqlik ko'rsatayotganliklarini qalbdan his etadi. Bunday natijaga, shubhasiz dars jarayonida oqitish usullaridan har tomonlama foydalanish orqali erishish mumkin.

Men o'z darslarimni o'tish qulay va jonli bo'lishi uchun turli ko'rgazmaliquollar ishlab chiqaman, ulardan o'z vaqtida va o'rnida foydalanishga harakat qilaman. Murakkab mavzuni o'quvchilar ongiga osongina yetkazish uchun "Aqliy hujum", "Zakovat", "Modul dars", "Zigzag", "Interfaol", "O'yin dars", "Munozarali-bahsli dars", "Sayohat dars", "Musobaqa dars" kabi usullardan foydalanaman. Darslarda o'zim o'rgatgan manbalardan, savollar yoki testlardan unumli foydalanishga harakat qilaman. Ta'limga har doim yangilanishga mushtoqdir.

Shuning uchun, iloji boricha, ta'limga yangi usullari ustida izlanishimiz talab etiladi. Chunki o'quvchilarga ham bir xil qolipdagi darslar yoqmaydi, ularni zeriktiradi. Natijada o'quvchi darsni yaxshi o'zlashtira olmaydi. Har bir usuldagagi darslar ikki-uch marta o'tilganda o'zini oqlaydi. Me'yordan oshmasligi, o'quvchilarni zeriktirmasligi uchun usullarning turlicha bo'lishi darsning samaradorligini yanada oshiradi. Dars jarayonlarida notiqlik, suhbat, hikoya, mustaqilish, yozma ish, zamon bilan bog'lash, mustaqil fikrga tayanish shakllariga katta e'tibor berishimiz lozim. Har bir o'tilayotgan darsga o'quvchilar tomonidan berilayotgan baho biz uchun qadrli dir.



Hozirda ta'lif metodlarini takomillashtirish sohasidagi asosiy yo'nalishlardan biri interfaol ta'lif va tarbiya usullarini joriy qilishdan iborat.

Interfaol usullarni qo'llash natijasida o'quvchilarning mustaqil fikrlash, tahlil qilish, xulosalar chiqarish, o'z fikrini bayon qilish, uni asoslangan holda himoya qila bilish, sog'lom muloqot, munozara, babs olib borish ko'nikmalari shakllanib, rivojlanib boradi.

Yana darslarimni qiziqarli va tushunarli bo'lishi uchun "Sinkveyn"

"Assesment", "Tushunchalar tahlili" kabi metodlardan ham, yana "Matn tahlili" metodlarini ham ko'p bora qo'llayman, chunki bir xil metodlarni qo'llash ham bolalarni zeriktirib qo'yishi mumkin shuning uchun ularni tez-tez almashtirib turaman bu esa darsimni samarali chiqishiga sabab bo'lad i.

Misol uchun "Sinkveyn" metodidan foydalanish orqali o'quvchilar so'z

turkumlarini yana bir bor esga olishadi. Misol uchun "Kuntug'mish" dostoni yuzasidan o'quvchilarga sinkveyn tuzish vazifasi berilsin. Bunda o'quvchilar asr ichida biror so'zni olib bajarishadi.

1. Sandiq
2. Katta, chiroyli
3. Yasaladi, solinadi, quluflanadi
4. Usta chiroyli sandiqlar yasadi
5. Quti

Bugungi kunimiz nihoyatda shiddatkor.U har bir o'qituvchidan o'z ishiga ijodiy yondashishni, ta'limning yangi shakllaridan foydalangan holda dars samaradorligini oshirishni talab qilmoqda. Ayniqsa, adabiyot darslarida o'quvchi o'zligini anglasa,o'zini va o'zgalarni tushuna olsa,o'qituvchi o'zining kamchiliklarini ko'ra olsa va ularni to'g'rakashda g'ayratli bo'lsagina, dars kashfiyot darajasiga yetadi.

Foydalilanigan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2020 yil 24 yanvardagi Oliy Majlisga Murojatnomasi. T.: "O'zbekiston", 2020.
- 2.Sh.Mirziyoyev Milliy taraqqiyot yo'limizni qattiyat bilan davom ettirib yangi bosqichga ko'taramiz O'zbekiston nashriyoti Toshkent -2017.
3. Adabiyot nazariyasi. Darslik. Toshkent -2017.
4. ziyonet.uz



## «BOBURNOMA» ASARIDA TARIXIY SHAXSLAR TASVIRI

Mirzatillayeva Shohista Mehmonjonovna  
Namangan viloyati Pop tumani  
23-sonli umumta'lim maktabi  
Ona tili va adabiyoti fani o`qituvchisi  
Tel: + 99 975 00 54

**Annotatsiya:** ushbu maqolada Boburning «Boburnoma» asarida tasvirlangan tarixiy shaxslarni o`rganishda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish haqida fikrlar bildiriladi.

**Kalit so`zlar:** «Boburnoma» asari, «Tarmoqlar» metodi, memuar asar, tarixiy shaxslar

Umumta'lim maktablarida temuriyzoda , shoh va shoir Zahiriddin Muhammad Boburning «Boburnoma» asarini o`rganish bo`yicha ma'lum soatlar ajratilgan. Quyida ushbu asarni o`rganish bo`yicha mulohazalarini aytib o`tamiz.

Dastlab „memuar” atamasi hamda memuar asarlar haqidagi ma'lumotlarni bilib olish muhimdir.

-**MEMUAR** fransuzcha so`zdan olingan bo`lib, „esdaliklar; xotiralar”degan ma`nolarni anglatadi.

- **MEMUAR ASARLAR** (Yodnomalar) – muallifning o`zi qatnashgan yoki o`zi ko`zi bilan ko`rgan o`tmish voqealari haqidagi asarlar. Memuar asarlarning o`ziga xos xususiyatlari shundaki, unda muallif ishtirokchi yoki guvoh sifatida tasvirlanayotgan voqealar markazida turadi.

Memuar asarlardan „**Boburnoma**”asarni o`qidik. Bu asar materiali, ishonchliligi, badiiy to`qimaning yo`qligi jihatni bilan ilmiy asarlarga yaqin turadi. U adabiyot, tarix, biologiya, geografiya kabi fanlarga birdek manba sifatida xizmat qiladi.



-Mana, asar to`g'risidagi bilimlarimizni „Tarmoqlar” metodi yordamida aks ettirdik. Endi „Boburnoma” asaridagi tarixiy shaxslar nomi birma-bir yodga olinadi. Bobur o`zi yaqindan tanigan, u bilan teng mavqeda bo`lgan temuriy hukmdorlar va ularning davlat tutimi haqidagi qarashlarini bayon qiladi.

Bobur nigohidagi hukmdor siyrati ma'lum tartib hamda izchillik bilan yoritib berilganki, u kitobxon ko`z o`ngida namoyon bo`ladi. O`quvchi tushunishi uchun oson va qulay sharoit yaratma oladi.

**UMARSHAYX MIRZO** portreti:

Bobur o`z otasini shunday tasvirlaydi: „Past bo`yluq, tegirma soqolliq, qo`ba yuzluk, tanbal kishi edi....hanafiya mazhabliq, pokiza e`tiqodliq kishi edi...Ravon savodi bor edi....”

To`nni bisyor tor kiyar edi, andog`kim, bog` bog`laturda qornini ichiga tortib bog`lag`ondin so`ng o`zini qo`ya bersa, bisyor bo`lur erdikim, bog`lari uzulur edi...”



**SAYDIM ALI darbon** (Badiuzzamon Mirzoning navkari) portreti:

,, Saydim yaxshi axloq va atvorlik kishi edi. Qilichni zo`r chopardi. Uyida yig`insiz va suhbatsiz o`tirmasdi, ancha sahovatli edi. Ajab kifoyatli va himmatli, zarofat va latofati go`zal, munosabat va suhbat shirin, xushxulq, so`zamol va hazilkash kishi edi. Aybi shu ediki, o`ta fosiq va mazhabida biroz chetga og`ish bor ekan. Biroz ikkiyuzlamachi edi....”

**ALISHER NAVOIY** haqida: „Alisherbek naziri yo`q kishi erdi. Turkiy til bila to she`r aytibturlar, hech kim oncha ko`p va xo`b aytqon emas. Olti masnaviy kitob nazm qilibtur, beshi „Xamsa” javobida, yana biri „Mantiq ut-tayr” vaznida „Lison ut-tayr ”otliq. To`rt g`azaliyot devoni tarti qilibtur: „G`aroyib us-sig`ar”, „Navodir ush-shabob”, „Badoyi ul-vasat”, „Favoyid ul-kibar”otliq. Yaxshi ruboiyoti ham bor. Yana „Mezon ul-avzon” otliq aruz bitibtur... Forsiy nazmda „Foniy” taxallus qilibtur. Yana musiqiyda yaxshi nimalar bog`labtur. Yaxshi naqshlar va yaxshi peshrablari bordur.” kabi fikrlarni bildiradi

Bobur asarda bunday ma`lumotlardan ko`plab keltiradi. Asarni o`qish bilan tarixiy voqealari, tarixiy shaxslar haqida bilimlarimizni kengaytirib borishimiz mumkin.

Foydalaniqan adabiyotlar:

1. Adabiyot darsligi. 10-sinf
2. Bobur „Boburnoma” asari.
3. Safo Matjon, Sharofjon Sariyev „O`zbek adabiyoti” qo`llanma



**ERUR ANDOQ VAPOSIZ UMR O'TAR OHISTA-OHISTA (MASHRAB IJODIDA  
TAKRIR BADIY SAN'ATINING MOHIRONA QO'LLANISHI)**

*Ro`ziyeva Xushvaqt Qo`ziyevna  
Navoiy viloyati Zarafshon shahri  
10-umumi o`rta ta`lim maktabi  
Ona tili va adabiyot fani o`qituvchisi  
Telefon: 93 -662 -47-19*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Mashrab she`riyatining badiiy xususiyatlari haqidagi mulohazalar bayon etilgan. Takrir san`ati haqida tushuncha berilgan, Mashrab ijodida takrir badiiy san`tining qo`llanishiga misollar keltirilgan.

**Kalitso`zlar:** Takrir, badiiysan`at, Mashrab, tasavvuf, so`z, ruhoniyat, tazod.

O`zining otashin g`azallari bilan ko`ngillarga o`t soluvchi Boborahim Mashrab nomini va ijodini bilmaydigan o`zbek xonadoni bo`lmasa ke -rak. Uning hassos baytlarini bilmaydigan, uning so`zлari bilan kuyylanadi gan qo`shiqlarni yaxshi ko`rmaydigan adabiyot muxlisi topilmasa kerak. U tom ma`noda xalq shoiri bo`lib, barcha she`rlari og`izdan-og`izga o`tib, bizgacha yetib kelgan: uning qo`shiqqa aylanib, tilga tushmagan, dildan joy olmagan she`ri yo`q. Ko`ngilga yaqin isyonkor musiqiy va jarangdor she`rlar Mashrab ijodining o`ziga xosligidan dalolat. Mashrab ijodida qo`llangan badiiy san`- at lar g`oya tashish uchun xizmat qiladi. Biz mazkur maqolamizda Mashrab ijodida qo`llangan **takrir** badiiy san`atining badiiy-uslubiy xususiyatlarini yoritamiz.

Takrir san`ati she`rda u yoki bu so`zni takror qo`llashni nazarda tutadi. Mashrab ijodida **takrirning turli ko`rinishi turli maqsadda qo`llangan**. Bir g`azalida Mashrab yor – Olloh ishq tarannum qilib, radifni takrir san`atiga qurgan: *Borurman ostoniga sahar ohista-ohista,*

*Surarman ko`zlarimga xokidar ohista-ohista.*

Mazkur baytlar bilan boshlanuvchi g`azalining radifi uchun takrir san`ati qo`llangan **ohista-ohista** so`zлari olingan. Mazkur so`lar bejizga radif uchun tanlanmagan. Chunki radifning asosiy maqsadi shakl bilan birga g`oya tashish uchun xizmat qiladi. Aynan radifda takrir san`atining qo`llanishi g`azaldagi mazmunni kuchaytirishga xizmat qilgan. Ayniqsa, dunyo bevafoligi, umr o`tkin chiligi, Olloh jamoliga intiqlik haqidagi fikrlarni kuchaytirish uchun xizmat qilgan.Ba`zan esa bir satrning o`zida so`zni takror qo`llaydi va musiqiylikni yuzaga keltirgan: *Shohi mukarram, shohi muazzam,*

*Qilmadi shafqat mendek gadoga*

“Arzimni aytay bodi sabog`a ”misralari bilan boshlanuvchi mashhur g`azalida qo`llangan takror so`zlar sho`x, o`ynoqi ohandorlikni yuzaga keltirishdan tashqari chuqur mazmuniy munosabatni yuzaga keltirgan. Ayni takrir qo`llash barobarinda, **shoh va gado** so`zlarining zid qo`llanishi **tazod** san`atini ham shakllantirgan. Tasavvufona ruhdagi mazkur g`azal da oshiq ruhiyati kechinmalari mazkur san`atlar orqali yana ham go`zalroq ifodalangan.

Mashrab ba`zi ijod na`munalarida takrirning ko`pchilik ijodkorlarda uchramaydigan, o`zgacha usulini qo`llagan: ijod na`munasi boshida qo`llagan satrini takror qo`llab, ijodn a`munasi oxirgi satrida yechim tariqasida qo`llaydi: **O`shal kun senga, eys ho`xi sitamgar, oshno bo`ldim,**

**O`shal kun senga, paymon ayladim, ey sho`xi beparvo.** Mashrab ijodida bu usulning qo`llanishi ma`no ta`kidi uchun xizmat qilgan.Undan **ey sho`xi** so`zlarining takrori ham **takrining** go`zal namunasi bo`lib, shuning barobarinda **nido** san`atini ham shakllantirgan.

Xullas, Mashrab she`riyatini takror-takror o`qib, fikr yurutib,tahlil qilib shunga amin bo`lamizki, shoир huda-behuda narsalarni qalamga olmaydi,ular uchun so`z sarflamoqni ham o`ziga joiz topmaydi. U shunday mavzularni qalamga olganki, chuqurroq mushohada etilsa, aksariyati tasavvufona ruhda bo`lib, ruhoni ma`rifatni uyg`otishga qaratilgandir. Bu g`oyalar targ`ibotini biz tahlil qilgan san`atlar vositasida amalga oshirgan va o`zining badiiy maqsadiga erishgan. Mashrab ijodi asrlar o`tsa-da, o`zining jilosи bilan adabiyot muxlislari nazarida bo`ladi, o`z mohiyatini yo`qotmaydi.

Foydalilanigan adabiyotlar

1. Hojiahmedov.A. Mumtoz badiiyat malohati. Toshkent-1999,100-bet
2. Mashrab. Agar oshiqligim aytSAM. Toshkent. “O`zbekiston”,2013



## ЎЗБЕК РОМАНЧИЛИГИДА ХАРАКТЕР МУАММОСИ (ЙЎЛДОШ СУЛАЙМОННИНГ "АРМОН" РОМАНИ МИСОЛИДА)

*Шаҳноза МАМАЮНУСОВА  
Фарғона шаҳридаги 31-ўрта таълим  
мактаби бошлангич синф ўқитувчisi,  
мустакил тадқиқотчи  
Телефон: +998912742587*

**Аннотация:** Ушбу мақолада бадиий адабиётда характер яратиш услуби Й. Сулаймоннинг «Армон» романни мисолида талқин этилади. Романдаги воқеалар XX асрнинг I-ярмида Фарғонада бўлиб ўтади. Даврнинг мураккаб воқеалари характерлар тасвирида акс этади.

**Калит сўзлар:** характер, миллийлик, макон ва замон, қарама-қаршилик, ифода.

XX аср ўзбек романчилиги тараққиётида таникли ижодкор Й. Сулаймоннинг алоҳида ўрни бор. Ҳар қандай асар муаллифи аввало яратган қаҳрамонлари орқали жамиятга, ижтимоий воқеликка у ёки бу даражада муносабат билдиради. Ёзувчи асарларида тасвирланган маконгина эмас, балки қаҳрамонлар ҳам бизга ғоят яқин ва танишдир. Чунки Й. Сулаймон уларнинг табиатига фарғонача урф-одатларни, сўзлаш тарзини сингдирib юборади ва бу билан тўлақонли миллий характерни яратишга эришади.

Й. Сулаймон XX асрнинг биринчи чорагида ер шарининг учдан бир қисмида қарор топган шўро тузуми идеаллари руҳида тарбия топган ва мустақилликка эришгунимизга қадар унга содик қолишга мажбур бўлган ижодкорлардан бири эди. Шу боисдан ҳам «Армон» романни қаҳрамонларини ўзи яшаган макон ва замондан айро ҳолда тасаввур этиш мумкин эмас. Романда тасвирланган давр мураккабликлари Салмон добр ва Абдушукур маҳдум ўртасидаги муносабатларда намоён бўлади. Роман воқеалари Фарғонада кечади. Асарда ҳалқни вақтинча йўлдан адаштирган “инқилоб” деб аталмиш оғир йилларда нима қиларини билмай аросатда қолган кишиларнинг ҳаёти қаламга олинади. Армонда қолган Дарвешали ва Зиёхон ўртасидаги ишқ мисолида инсон қадр-қиммати улуғланади. Шўроларнинг ҳокимят тепасига келиши ҳалқни иккига: шўро давлати ва мустақил давлат қуриш тарафдорларига бўлинишига олиб келди. Машҳур авар шоири Расул Хамзатов бадиий адабиётда характердаги миллийлик ва умуминсонийлик тушунчалари тўғрисида тўхталиб, бу икки тушунча бир-бирини рад этмаслигини, аксинча тўлдиришини таъкидлайди. Лекин шўролар ҳокимияти тарафдоларининг қарашларида ўзаро фарқ бор. Бу Солмон Эшматов ва Сирож Соҳибов муносабатларида кўзга ташланади. Масалан, Солмон Эшматов ғалаёнили йилларда ўз хоҳиши билан фирмага “добровольний”(кўнгилли) бўлиб киргани боис раҳбарлар уни “Салмон добр” деб атайдилар. Унинг характерида итоаткорлик, гояларга кўр-кўрона ишониш, фирмака буйруқларини сўзсиз бажариш мавжуд. У ҳалқнинг илғор зиёлилари Акмал Икромов ва Файзулла Хўжаевни шўро ҳукумати “ҳалқ душмани” деб қоралаб қамаганида у ҳам “барча бузғунчиликлар, одамларни адаштириш, иккиюзламачилик, фисқу-фасод ўша билимлилардан чиқади. Билимсиз одам ёмон кўрганига қучоқ очиб бермайди, ўқиганлар энг ваҳший ишларга қўл уришдан ҳам тоймайди. Кўп ўқиган сари ваҳшийлашиб боргандарни кўп кўрдим” деб хуласа чиқаради.

Фирқа қарорларини «кулок қоқмай» бажарган Салмон добр охир-оқибат ўзи ҳам янги ҳукумат томонидан «ҳалқ душмани» сифатида қамалади. Фирқа раиси Сирож Соҳибов билан қамоқхонадаги учрашувда, бир камерада ётган пайтларида сухбатда улар қарашларида қарама-қаршилик борлиги аён бўлади. Сирож Соҳибов шўро қарорларига шубҳа билан қарайди. У Солмон добрни ҳар бир воқеликка тафаккур билан қарашга ундейди.

Характер хусусиятларнинг яна бир унсури шундаки, у образларнинг ташки кўриниши, кийим-кечаги, хатти-харакатидир. Асарда қатағон муҳитининг, шўро ҳокимияти мудҳиш сиёсатини нечоғлик гайринсоний эканини, мамлакатнинг «гули» бўлган миллий зиёлиларнинг йўқ қилишга асосланганлигини Ҳидоятилло эшон очиб ташлайди. У ҳам Сирож Соҳибов, Салмон добр билан қамоқда бир камерада ётаркан, ўзаро мунозараларда шундай дейди: «Нима деб ўйлайсиз, майли, ихтиёрингиз, аммо ўша ҳалқингиз, ўша жамиятингиз, бугун мендан кўра сизни ўзи учун хавфли деб ўйлайди. Ҳали мени бўшатиб юборадилар, сизга эса, озодликка чиқиш насиб этадими, йўқми, якка- ёлғиз Оллоҳ билади... Сиз бир



бандаи ғоғилсиз. Ўзингизча, ҳукм чиқариб, бошингизга бундан баттар бало ёғдирманг. Ўзингизни ҳибсга олиб, номингизни ёмон отлиққа чиқарган шу мудхиш жамиятни ўлибтирилиб ҳимоя қилишингиз ақлданми?»(92 бет).

Ҳамхоналарининг бундай баҳсига жимгина кулоқ солиб турган Салмон добрға Ҳидоятилло ҳазратнинг сўзлари таъсир этади. Унда мавжуд жамиятнинг юритаётган сиёсатига нисбатан шубҳа пайдо бўлади: «... менга ишонишмаса, Сирож Соҳибовга ишонишмаса, шўро учун қон кечган, жон кечгандарни аяшмаса, охири нима бўлади?..» дея ўйлай бошлайди. Аммо у бундай қатағонга асосланган сиёсат марказдан бошқарилаётганини хаёлига келтирмайди. Дарҳақиқат, Ҳидоятилло ҳазратнинг айтганлари тўғри чиқади. Ҳидоятилло ҳазратни қамоқдан бўшатадилар. Сирож Соҳибов эса қамоқда қолади.

Асарнинг асосий қаҳрамони Дарвешали Солмон добрнинг ўғли. У Қаландархона масжидининг имоми, Қўқон муҳториятининг элчisi, маслаҳатчиси, Мозори Шарифда бир мунча вакт турган Аълоҳон ҳазратнинг жияни. Абдушукур маҳдумнинг қизи Маҳбубаҳонга уйланади. Лекин оиласда, севгидан баҳт тополмайди. У Маҳбубаҳоннинг мутелигидан, мустақил фикрнинг йўқлигидан қўнгли тўлмайди. У Абдушукур маҳдумнинг жияни Зиёхонни севиб қолади. Асарда уларнинг севгиси тасвирига кенг ўрин ажратилган.

Асар муаллифи Абдушукур маҳдумни сатирик чизгилар билан акс эттирган бўлса-да, лекин у ҳам ўз даврининг мураккаб воқеалари қурбони, ҳаёти алғов-далғовлар гирдобида кечган шахс. У ҳам ўзини ватанидан айро ҳолда ҳис эта олмайди.

Юқоридагилардан шуни англаш мумкинки, адабиёт ҳамиша даврнинг ижтимоий муаммоларини кўтариб чиқади, ҳалқ оммасининг ўша муаммоларига муайян муносабатини ифодалайди. Бадиий асар предмети эса инсон ҳаёти бўлиб, ёзувчи у орқали одамларнинг характеристи, кураши, орзу-интилишлари, табиатга, воқеликка муносабатини акс эттиради. Асарда тасвирланган инсон характеристи, қаламга олинган мавзу, ифодаланган гоя ва муаллифнинг уларга муносабати асар мазмунини яратади ва китобхон дунёқарашига таъсир қиласди.

Демак, ёзувчи Й. Сулаймон ўз романларида турли тоифага мансуб кишиларнинг ўзига хос хусусиятларини ёритиб, табиий характеристларни яратади олган.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. И. Султон. Адабиёт назарияси. Дарслик. Т-1986 42-б;
2. Й. Сулаймон. Армон. Т-2000. 92-189-300 б.



## ALISHER NAVOIYNING "XAMSA" ASARIDA IJTIMOY ADOLAT VA SHAXS ERKI MASALASI

*Abbosova Shoxista Abbasovna  
Farg'ona viloyati Farg'ona tumani  
49-maktab o'qituvchisi,  
Tel: +99 8973351816*

**Annotatsiya:** maqolada Navoiy "Xamsa" sidagi umuminsoniy qadriyatlar talqini masalasining asosiy jihatlari, ularning mohiyati, ahamiyati va g'oyaviy manbalari yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** umuminsoniy qadriyatlar, ijtimoiy-siyosiy hayot, adolat, adolatli jamiyat.

Butun umrini el-yurt farovonligi yo'lida ezgu ishlarga baxshida etgan Alisher Navoiyning ulug' shoir va mutafakkir hamda yirik davlat arbobi sifatida ko'rsatgan faoliyati bashariyat tarixida unutilmas sahifadir. Alisher Navoiyning odil hukmdor davlatni qanday boshqarishi kerakligi to'g'risidagi qarashlarining hayotiyligi shoirni o'quvchi ko'z o'ngida ijtimoiy – siyosiy hayotga faol aralashib yurgan va unga aniq nazar bilan yondashgan shaxs sifatida gavdalantiradi. Shoir insoniyatning azaliy orzusi bo'lgan adolatli jamiyatga ma'naviy barkamol podshohning odil siyosati zarur deb biladi.

Navoiy "Saddi Iskandariy"da "har qanday mamlakat shohi davlat ishlarini boshqarmoq uchun adolatni o'ziga shior qilib olmog'i kerak" degan g'oyani ilgari suradi. Uning fikricha, "shoh o'z adolati bilan xalqni ma'mur qilishi kerak, qaysi bir shohning insof va adolati bo'lmasa, uning mamlakati obod bo'lmaydi va xalqi farovon hayot ko'rmaydi; Binobarin, shoh adolatli bo'lishi, zulmkor kishilarni tuban tutishi, o'zgalarga hech qanday kun bermasligi lozim; Xalq adolatga asoslangan intizom bilan yashasa, shoh ulus aro eng azizu mukarram bo'ladi, degan xulosa kelib chiqadi. "Hayrat ul abror"da:

*Shohki ish adl ila bunyod etar,  
Adl buzuq mulkni obod etar.  
Kofiri odil ani obod etib,  
Mo'mini zolim ani barbod etib.  
Shahki erur adl ila davron anga,  
Bo'ldi sirat o'tmagi oson anga.*

Navoiyning bu xususdagi ijtimoiy qarashlaridan shohlarning adolatparvarligi ularning millati, irqi yoki diniy e'tiqodlaridan iborat emas, balki ularning adolat yo'lini tutib, xalqning mol va nomusini saqlash va uni zulmdan himoya qilishdan iboratdir, degan xulosa kelib chiqadi.

Eronlik faylasuf Jaloliddin Davoniy "Axloqi Jaloliy" asarida adolat uch qismga bo'linib, o'n ikki turi haqida fikr yuritiladi:

- Mulk va yaxshilik bilan bog'liq.
- Mol almashinishida o'z ifodasini topadi.
- Siyosat va tarbiyaga daxldor bo'lib, bunda "mo'tadilikka roiya qilishga, shariat qonun-qoidalari bo'yicha ish tutishga kishilarni da'vat etadi".

Navoiy adolat g'oyasini hayotdan olingen misollar asosida har tomonlama keng ma'noda tasvirlaydi. Bu Navoiyning "Xamsa", "Mahbub ul qulub" va boshqa asarlarida ijtimoiy adolatni axloqiy, siyosiy va huquqiy qismlardan iborat tasavvurini ko'plab uchratamiz.

Navoiy dunyoqarashida adolat axloqiy tushuncha sifatida birinchidan, hukmdorning ma'naviy qiyofasini belgilovchi ta'rif, ikkinchidan esa, ijtimoiy tuzum va ijtimoiy munosabatlarga bildirilgan fikrdan iborat mutafakkir adolat qoidalarini yetakchi o'ringa qo'yarkan, hukmdorlarning o'z oldidagi muhim ijtimoiy vazifalari va majburiyatlarini ko'rsatadi, ulardan xalqqa nisbatan insoniylik va mehr-shafqat talab qiladi. "Mazlumg'a baxshoyish ko'rguzki, - deb yozadi "Mahbub ul-qulub" asarida, - zolimdin osoyish ko'rgaysen. Zerdastlarga naf' yetkur, agar tilasangki, zabardastlardin zarar ko'rmagaysen".

Mutafakkirning bu fikridan shohning nufuz-e'tibori, shoh hokimiyatning barqarorligi insoniylik va odillikka asoslanishi kerak, degan xulosa kelib chiqadi.

Demak, odamzod bor ekan, olam bor ekan, olm ichida odamzod yashar ekan, adolat bilan olam yuzini obod qilish, yaxshi xulq bilan dunyodagi odamlarni shod qilish kerak. Bu g'oyalar Navoiyning umuminsoniy qadriyatlar masalasida yaxshilikni targ'ib etuvchi asosiy tezisi



hamdir. Chunki u umumiyyatloq qarashlarida yaxshilikning barqaror bo'lishi, yomonlikning yo'qotilishi, yaxshilikdan o'rnatish, yomonlikdan nafratlanish kabi qadriyatlarga asoslanadi.

Navoiy axloq va aql haqiqat mezonini, ijtimoiy adolatni barqaror etuvchi omil bo'lgani uchun axloqiy kamoloti intilishni har biro dam uchun zaruriy fazilat deb biladi. Uning orzusidagi yuksak insoniylik yuksak axloq qoidalariga amal qilishdir.

Navoiy orzusida adolat siyosiy tushuncha sifatida, bir tomondan, ayrim shaxslar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarga niabatan ma'naviy baho berilsa, ikkinchi tomondan, podshoh va hukmdor doiralarining ijtimoiy faoliyatiga berilgan ta'rifnomasi, ularning ma'naviy qiyofalariga nisbatan baho sifatida namoyon bo'ladi. Navoiyning adolat g'oyasi faqatgina shohlarga nisbatan emas, balki butun jamiyatning ma'naviy va siyosiy holatlariga nisbatan ham berilgan bahodan iborat umumiyyat qadriyatlari sifatida ifodalananadi. Adolatli bo'lish, Navoiy fikricha, oliy axloqiy fazilatlarga ega bo'lishni ham toqozo etadi. Inson ma'naviy jihatdan ham, amalda ham poklik mavjud bo'lgandagina yaxshi ishlar yuzaga chiqishi mumkin. Uning fikr-mulohazalarida adolat g'oyasining siyosiy ma'noni mavjud ijtimoiy –siyosiy munosabatlarga, butun jamiyat tuzumiga nisbatan berilgan bahodan iborat bo'lib, davlatni boshqarish mafkurasining asosiy negizi sifatida namoyon bo'ladi. Mutafakkir hukmdorlardan adolat talab etarkan, avvalo o'zi shu talabga rivoj qiladi.

Foydalaniman adabiyotlar:

1. Mallayev N. So'z san'atining gultoji. – Toshkent: Gʻ.Gʻulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1991. – 149 b.
2. Navoiy Alisher. Saddi Iskandariy. – Toshkent: Gʻ.Gʻulom nomidagi Nashriyot matbaa birlashmasi, 1991. – 832 b.
3. Navoiy Alisher. Farhod va Shirin. – Toshkent: Gʻ.Gʻulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1991. – 592 b.



## TA'LIM TIZIMIDA ADABIYOT O'QITISH MASALALARI

*Muazzam Eshonqulova*

*Bog'dod tumani*

*54-maktab o'qituvchisi*

*e-mail: muazzam@gmail.com*

**Annotatsiya:** maqlolada ta'limga ayrim bosqichlarida adabiy-nazariy tushunchalarnini mazmuni, ta'limga bosqichlarida adabiy materiallar qanday berilishi kerakligi, bu jarayonda bevosita adabiy-nazariy tushunchalarni o'rganish kabi masalalar yoritilgan

**Kalit so'zlar:** adabiy-nazariy tushunchalar, ta'limga bosqichlari, adabiy materiallar

Har qanday mamlakat istiqbolli rejalar tuzar ekan, avvalo ta'limga e'tiborni kuchaytiradi. Ta'limga har bir jamiyatning ajralmas qismi, madaniyati va rivojlanishning asosiy ko'rsatkichidir. Ta'limga taraqqiyotining barcha jabhalarida ko'zlangan bosh maqsad esa respublika ta'limga o'sib kelayotgan yosh avlod ma'naviyatini milliy istiqlol g'oyalari, talablari asosida tashkil etishdir. Jamiyatimiz qadam qo'ygan XXI asr ta'limga taraqqiyot, ma'naviy-madaniy qarashlar ruvida bo'lishini, eng muhimi, jahon andozalariga javob bera oladigan darajada bo'lishini ta'minlashdir. O'quvchilarda bilim olishga intilish va bilim olishga ehtiyoj bo'lishi, o'qish maqsadlari ichki zaruratga aylanishi kerak. O'quvchi real hayotga kirib borishi, unda faol ishtirok etishi uchun bilim, ko'nikma va malakalar bilan birga, ilmiy bilish metodlariga ega bo'lish kerakligini ongi ravishda tushunib yetishi lozim. Chunki, ochiq jamiyatning asosiy belgisi bu dunyoni anglab yetish va unda o'zining munosib o'rmini topishi uchun erkin izlanishdir. O'quvchilarda tashabbuskorlik va mustaqillikni, bilimlarni puxta va chuqur o'zlashtirishni, zarur malaka va ko'nikmalarni, ularda kuzatuvchanlikni, tafakkur va bog'lanishli nutqni, xotira va ijodiy tasavvurni tarbiyalashga imkon beruvchi didaktika-bu ta'limga faollikdir. Faoliyot mezonlari onglilik prinsipi bilan bevosita aloqadordir. Chunki faoliyot joyda onglilik bo'ladi. Respublikamizda amalga oshirilayotgan ulkan bonyodkorlik ishlari, islohotlar, mamlakatimiz iqtisodiy qudratining oshib borish natijasida jamiyat ijtimoiy sohasining markaziy bo'g'ini hisoblangan xalq ta'limga ham tub islohotlar ro'y berdi. Ushbu islohotlar natijasi o'laroq, yoshlar ta'limga tarbiyasini takomillashtirishga qaratilgan say-harakatlar ta'limga mazmunini, uzluksizligini ta'minlab beradigan yangi hujjatlar, pedagogik texnologiyalar, amaliyot uslublari bilan boyib bermoqda. Bugun dunyo ma'rifatparvarlari qisqa vaqt ichida O'zbekistonda yuz bergen ulkan o'zgarishlarga erishilgan natijalarga yuksak baho bermoqdalar. Madaniyat asrlardan-asrlarga, nasllardan-nasllarga, avlolardan-avlodlarga moddiy boylik emas, balki ma'naviy meros bo'lib o'tib kelmoqda. Axloq, madaniyat, ma'naviyat masalalari har bir davrning, har bir mamlakat taraqqiyotining dolzarb muammolaridan bo'lib kelgan.

Dastur talabiga ko'ra, quyi sinflarda o'zlashtirilgan ertak, doston, maqol, she'riy va nasriy nutq, hikoya, qissa, masal, humor, ruboq, qit'a, lirik she'r, fard, memuar asar, satira, komediya kabi janr tushunchalari 9-sinfda boyitiladi. Badiiy adabiyot janrlari, jumladan, tarixiy roman haqida batafsil ma'lumot beriladi, o'quvchilar egallagan bilimlar boyitiladi. Maktab o'quvchilarida janr tushunchasini shakllantirish prinsipi muntazam izchildir. Sinfdan sinfga o'tgan sari janrlar haqida ma'lumot berilishi, alohida o'rganiladigan asarlarning janr xususiyatlari chuqur tahlil etilishi va umumlashgan aniq, ixcham ilmiy fikrlar o'quvchi ongiga etkazilishi kerak. Hozirgi adabiy ta'limga uchun biror asar tahlili natijasida undan chiqadigan xulosa emas, balki o'sha xulosaga kelish yo'li muhimdir. Bu yo'lida o'quvchi o'ylanishga, izlanishga, ma'naviy qadriyatlarni solishtirishga majbur bo'ladi. Agarda u o'shancha mantiqiy-badiiy harakatlar natijasida o'qituvchilar qarashlarining farq qiluvchi va hatto unga tamomila zid keluvchi xulosani chiqargan bo'lsa ham bundan quvonmoq kerak. O'qituvchi tarbiyalanuvchisidan faqat bir narsani o'z fikrini badiiy matnga tayangan holda talab qilishga haqli. Badiiy matn esa har bir kitobxon tomonidan o'zicha talqin etilishi mumkin. Adabiyot darslari shaxslararo munosabatlar natijasida shaxs sifatlarini shakllantirishga qaratilgan faoliyatdir, shaxslararo munosabat esa faqat ilm emas, balki ijod hamdir. Muallif tasvirlagan badiiy manzara bilan o'quvchi tomonidan idrok etilgan badiiy manzara hamisha ham adib istagiday bo'lavermaydi. Ba'zan o'quvchi adib ko'zda tutmagan, xayolga keltirmagan, hatto muallifning qarashlariga zid, ammo hayot haqiqati oldida to'g'ri bo'lgan badiiy xulosaga kelishi mumkin. Chunki hayotiy vaziyatning o'zgarishi ijtimoiy voqealardagi yangicha holat ba'zan ijodkorning oddiy izhori - dilda chuqur ijtimoiy ma'no topishga olib keladi. Haqiqiy badiiy asarning umri



uzun, faqat yaratilgan dam uchungina bo‘lолмайди. Ta’limning ayrim bosqichlarida adabiy-nazariy tushunchalarini berilgan mazmuni, hajmi va izchilligi masalalari alohida tadqiq etilishi kerak. Ta’lim bosqichlarida adabiy materiallar qanday berilishi kerak, ularga oid bo‘lgan nazariy tushuncha, mazmuni qanday bo‘lishi kerak, degan savollar amaliyotda tez-tez uchrab turadi. Bu jarayonda bevosita adabiy-nazariy tushunchalarini o‘rganish bilan birga ularni o‘rganish va o‘zlashtirishga yordam beradigan adabiy-tanqidiy qarashlardan foydalanish ham zarur. Matbuotda, gazeta va jurnallarda, adabiy-tanqidiy yo‘nalishdagi kitoblarda bunday qarashlarga keng o‘rin beriladi. Ularda tegishli badiiy asarlarning ilmiy baholari va sharhlari keltirilgan bo‘ladi. Bunday ishlar o‘quvchilarning umumiyligi dunyoqarashiga, badiiy asarni to‘g‘ri anglashlari va o‘zlashtirishlariga, undagi o‘ziga xosliklarni tezroq va teranroq tushunib olishlariga imkon yaratadi. Buning natijasida esa ularning ma’nnaviy olami yanada boyiydi, badiiy-estetik rivojlanishlarida qo‘sishimcha omil paydo bo‘ladi. Eng muhimi ularning adabiy savodxonligi ko‘tariladi. Xulosa qilib aytganda, mamlakatimizda pedagogika ilmi ham, amaliyoti ham yangilanib kelmoqda. Har qanday millatning yangilanishi yoshlar tarbiyasidan boshlanadi. Yoshlar esa bugungi kunda oilada va asosan ta’lim-tarbiya muassasalarida shakllantiriladi. Ta’lim vositalari o‘quvchilarning ruhiy, jismoniy, genetik va mintaqaviy o‘ziga xosliklarini to‘liq hisobga olgandagina yuqori samaradorlikka erishish mumkin.

Adabiyotlar:

1. Adabiyot – ruhiyat mulki. G‘.G‘ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti. –T.: 2000 y.
2. Boboyev T. “Adabiyotshunoslik asoslari” –T.: “O‘zbekiston” 2000 y.



## MUHAMMAD RIZO OGAIYINING MA'NAVIY-MARIFIY QARASHLARINI TAMINLAGAN TARIXIY SHART-SHAROITLAR

*Darmonjon Sadikova Karimovna  
Xorazm viloyat Shovot tuman  
40-sod umumiyo o`rta ta'lim maktabi  
ona tili va adabiyot o`qituvchisi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Muhammad Rizo Ogahiyning ma'naviy-marifiy qarashlarini taminlagan tarixiy shart-sharoitlari, qadriyatlari va ijtimoiy sohaga ta'siri yoritib berilgan.

**Kalit so'zlar:** mumtoz adabiyot, o'qitish, madaniyat,milliylik, qadriyat, meros, badiylik, o'zbek milliy adabiyoti, tarixiy asarlar.

O'zbekiston Respublikasi mustaqil taraqqiyot yo'liga kirishi bilan o'zining manaviy qadriyatlarini va milliy davlatchiligin qayta tiklash davriga qadam ko'ydi. Iqtisodiy, va ijtimoiy-siyosiy sohalarda tub o'zgarishlar davri boshlandi. Bu esa, milliy madaniyatimizni yuksaltirishni, manaviy merosimizni chuqur o'rganishni milliy mafkurasi g'oyalariiga mos kelishini taqoza etadi.

Ogahiy o'zi yaratgan va tarjima qilgan asarları bilan xalqimizning ilm- marifatni rivojlantirishga va O'zbekiston xalqlari tarixi hamda ijtimoiy-manaviy fikr taraqqiyotiga salmoqli hissa qo'shgan. Ogahiyning hayoti va ijodiy faoliyatini S.Dolimov, Ogahiy lirkasini R.Majidiy, tarixiy asarlarini Q.Munirov, Ogahiy ijtimoiy-falsafiy qarashlarini M.Safarboev o'zlarining ilmiy izlanishlarida yoritib bergenlar.Ogahiy ma'naviy-marifiy merosini ilmiy tamoyillar asosida maxsus o'rganish va uni xalq talimi sohasiga tadbiq etishda V.I.Zoxidov, S.Dolimov, R.Majidiy, Yu.Yusupov, Q.Munirov, G.Karimov, S.Xasanov va boshqalarning asarlarida o'z aksini topgan. Ogahiy o'n to'qqiz xil sheriyan janrlarda qalam tebratib, mumtoz adabiyotimiz xazinasiga ulkan hissa qo'shgan serqirra ijodkordir. Shoир ijodida g'azal, ruboи, qita, muxammas va qasidalar qatorida masnaviyalar ham muhim o'rinn tutadi."Kelib ey sohibi xujasta liko" misrasi bilan boshlanadigan 99 bayt masnaviyda sevgida sodiqlik, ahdga vafo, visolga erishmoq uchun hijron azoblariga bardosh berish kabi insoniy fazilatlar ulug'danadi.Shoirning badiy-sheriyl merosi "Taviz-ul oshiqin" (Oshiqlar tumorı) nomli devoniga jamlangan.

F.G'anixo'jaev Ogahiy tarjima asarlaridan 39 ta qo'lyozmani aniqlashga muvaffaq bo'lgan va ularni tavsif etgan. Bular orasida Qobus ibn Vashmgirning "Qobusnoma", Nizomiy Ganjaviyning "Haft paykar", Sadiyning Guliston", Jomiyning "YUsuf va Zulayho", Mirxondning "Ravzat us-safo" asarining 2-3 jildlari, Vosifyuning "Badoe ul-voqoe" si alohida ahamiyatga ega. Ko'rsatib o'tilgan asarlarning o'ziyoq Ogahiyning tarjima sanati orqali o'zbek adabiyoti va madaniyatini boyitishga naqadar salmoqli hissa qo'shganligidan dalolat beradi. Afsuski, adib o'zbek tiliga o'girgan asarlardan yana to'rttasi (Xusrav Dehlaviyning "Hasht behisht", Sharafiddin Ali Yazdiyning "Zafarnoma", Jomiyning "Bahoriston", "Salomon va Ibsol") hozirgacha topilgani yo'q.

Ogahiy g'azal janrini rivojlantirdi. U didi o'tkir, zukko Shoир edi. Ogahiy umrining oxirigacha sher ijod qilishdan to'xtamagan, o'z hayotini Harakatdan to'xtamaydigan oqar daryo deb bilgan. Uning sherlari "Harakat -umrga baraka", "Hayot - bu yashash demak" degan sharq falsafasini eslatadi. Shoир yozadi:

Eyki zamiringga safo istasang,

Sayr qilma sabot ixtiyor negaki tag'yir topar obi sof, doim agar qilsa chuqurda qaror.

Xiva xonligi sharoitida jamiyat ijtimoiy hayotida uchrab turadigan ayrim salbiy holatlar laganbardorlik, chaqimchilik Ogahiyni qattiq tashvishga solardi. Mehnashkash xalq ahvoidan xabar olmaydigan el tashvishini unutgan shaxsiyatparastlar Ogahiy satiralarining qahramonlari bo'lib qoldi. Ogahiy madhiyaboz saroy shoirlarining faqat formalizmdan iborat tuturihsiz sheriyl sanatiga qarshi o'tkir mushohadalar yuritdi.

Ogahiy o'zidan ilgari o'tgan fuzalo va shuarolarning asarlarini qunt bilan o'rgandi. Uning ilmiy-adabiy asarlariga nazar tashlar ekanmiz, u Alisher Navoiydan so'z sanatini o'rganganligini, fuzuliy chashmasidan suv ichganligini, ustoz Munisning hayot baxsh g'azallariga o'xshatib baytlar bittanini, zamondosh Rojiy, Dilovar g'azallarida kuylangan insonparvarlik va marifatparvarlik g'oyalari o'zi yashagan davrga hamohang tarzda o'ziga xos salohiyat va mazmun bilan ifoda etganligini ko'ramiz.



Yuqoridagilarga qo'shimcha qilib yana shuni ham alohida takidlash kerakki, Muhammad Rizo Ogahiyning ma'naviy-marifiy qarashlarining shakllanishida xalq og'zaki ijodining avloddan-avlodga o'tib kelayotgan talim-tarbiya borasidagi umuminsoniy qadriyatlar ham muhim ahamiyat kasb etganligi shubhasizdir. Bulardan tashqari Ogahiy Xorazmda juda qadimdan davom qilib kelayotgan boy ilmiy-adabiy ananalar va shu zamindan etishib chiqqan al-Xorazmiy, ibn Irok,, Beruniy, Zamaxshariy, Pahlavon Mahmud, Haydar Xorazmiy kabi ulug' mutafakkirlar yaratgan qomusiy asarlarning bevosita me-rosxo'ri bo'ldi. Bu hodisa ham, shubhasiz Ogahiy dunyoqarashining shakllanishiga va uning marifiy pedagogik qarashlari rivojiga katga tasir ko'rsatgan muhim omillardan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdug'afurov A. Muhammad Rizo Ogahiy. – T.: Meros, 1999. – 62 b.
2. Abdurasulov M. O'zbek mutafakkir Shoirlari ilm-ma'rifat haqida. - T.:O'qituvchi, 1972. - 68 b.
3. Ahmedov. B.A. O'zbekiston xalqlari tarixi manbalari. Munis va Ogahiy. –T.: O'qituvchi, 1991, -216 b.
4. Ogahiy abadiyati. –T.: O'zbekiston. 1999. –153 b.



## UMUMTA'LIM MAKtablari TIZIMIDA OGahiY HAYOTI VA ijodini o'qitish MUAMMOLARI

*Darmonjon Sadikova Karimovna  
Xorazm viloyat Shovot tuman  
40-sOn umumiY o'rta ta'lIm maktabi  
ona tili va adabiyot o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** Ma'lumki, Ogahiy adabiy merosi mazmun, badiiy jihatdan yuksak mavqega ega poetik asarlar bo'lib, ular milliy mafkuramizni mustahkamlash, yosh avlodni barkamol, ma'naviy jihatdan go'zal insonlar qilib tarbiyalashda katta ma'rifiy-estetik ahamiyatga egadir. Ogahiy hayoti va ijodini umumta'iim maktablari adabiyot fanidan chiqarilgan dastur va darsliklarda berilishi holati tahlilga tortilgan.

**Kalit so'zlar:** mumtoz adabiyot, o'qitish, dastur, darslik, tahlil, Ogahiy badiiylik, o'zbek milliy adabiyoti, tarixiy asarlar

Xorazm adabiy muhiti xalqimiz madaniy merosining ajralmas bir qismini tashkil etadi. Bunday adabiy-ijodiy muhit o'nlab iste'dod sohiblarini tarbiyalab kamolga yetkazgan. Ulardan biri Muhammad Rizo Ogahiy (1809- 1874) bo'lib, u o'z zamonining mashhur shoiri, muarixi (tarixchisi) va tarjimon, davlat arbobi bo'lgan. Uning shoirlik, tarjimonlik, muarrixlik faoliyatini tadqiq etish va asarlarini xalqqa yetkazish, ulardagi joziba, badiiylik qirralarini ochish, tahlil va talqin etish davr talabidirki, bu ayni paytda malakaviy bitiruv ishimizning dolzarbligini belgilaydi. Ming yillik tarixga ega bo'lgan mumtoz adabiyotimizda badiiyat masalasi hamisha she'r ahlining diqqat markazida bo'lib kelgan.

Mumtoz adabiyot namoyandalari va ular qoldirgan boy adabiy merosni bugungi kun yoshlariga o'rgatish masalasi qanday kechmoqda? Xususan, Muhammad Rizo Ogahiy hayoti va ijodini o'rta maktablarda o'rgatish masalasi qanday tashkillangan?

Sir emaski, bu savol umumiY o'rta ta'lIm maktablariAdabiyot o'qitish oldida turgan eng muhim muammolardan hisoblanadi. Mustaqillikdan keyin yaratilgan adabiyot o'qitish jarayonidagi iste'molda bo'lgan dastur va darsliklarda shoir ijodini o'rganish masalasiga qay darajada e'tibor qaratildi? Bu kabi savollarga oydinlik kiritish maqsadida bir qator umumiY o'rta ta'lIm maktablari adabiyot fani uchun tuzilgan dastur va darsliklarni o'rganib, mulohaza bildirishga harakat qildik.

"Adabiy ta'lImning maqsadi, darsliklarning mazmuni bir qadar ozgargan. Lekin eski davrga xos xususiyatlar, kamchiliklar birdaniga barham topmagan, albatta. Hali mamlakat mustaqilligi qo'lga kiritilmasdan oldin yaratilgan darsliklardagi rus adabiyoti namunalari kamaytirilib, mantiqqa muvofiq miqdorga keltirilgan. Masalan, 5-8-sinflar ucnun tuzilgan "Vatan adabiyoti" darslik-xrestomatiyalari mundarijasи yangi-yangi asarlar bilan boyigan". [Husanboyeva, Niyozmetova, 2018: 49] Metodist olima Q.Husanboyeva ta'kidlaganidek, mustaqillikdan keying yillarda yaratilgan umumiY o'rta ta'lIm maktablarining adabiyot fanidan tuzilgan dastur va darsliklarda yangilanishlar bo'ldi. Bularda Ogahiy hayoti va ijodini o'rganishga ham e'tibor qaratildi. U yoki bu ijodkor haqida so'z borganda, uning nimalarni tasvirlaganiga emas, asosan, qanday tasvirlaganiga e'tibor qaratilgan.

Muhammad Rizo Ogahiy ijodi o'zbek adabiyotshunosligida ancha keng o'rganilgan. Asarlari qayta-qayta nashr etilgan. Jumladan, 1958-1960-yillarda "Tanlangan asarları", 1960-yilda "Ta'viz ul-oshiqin" devoni, 1970-yillarda she'rlari, tarixiy, tarjima asarlaridan namunalar jamlangan 6 jildlik "Asarlar" to'plami chop etildi. Mustaqillik yillarda ham Ogahiy lirikasi "Sarvqomat ko'rmisham" nomida (2007), tarixiy asarlaridan "Zubdat ut-tavorix" ("Tarixlar qaymog'i") nashri amalga oshirildi. 6-sinfda shoirning "Choy" she' rini o'rganish uchun 2 soat vaqt berilgan bo'lsa, 10-sinfda Ogahiyning quyidagi asarlarini o'rganish tavsiya qilindi:

- 1.Ogahiy hayoti va ijodi haqida ma'lumot lsoat
2. Ogahiy she'riyati 1 soat

1991-yilda chiqarilgan umumta'lIm maktablari dasturida[Normamatov, 1992] shoir ijodini o'rgatishga quyidagicha e'tibor qaratildi. Dastur talabiga ko'ra, 8-sinfda 2 soat vaqt ajratilgan. Bu vaqt mobaynida mazkur sinfning o'zbek adabiyoti darsligida berilgan Ogahiy hayoti va ijodini o'rganish hamda shoirning "Choy" g'azali tahlili va "She'r-ko'ngil gavhari" mavzusida insho



yozish tavsiya etilgan.

1999-yili chiqarilgan DTS va o'quv dasturida [Yo'ldoshev, 1999] Ogahiy ijodini o'rganish masalasiga jiddiy diqqat qaratildi. Mazkut o'quv dasturida shoir hayoti va ijodi umumta'lim maktablarining 9-sinf "Adabiyot" darsligidan o'rinni oldi. Shoir ijodini o'rganish uchun dasturda 5 soat vaqt belgilandi. Dastur talabiga ko'ra, Ogahiyning "Qish", "Ustina", "Navro'z" g'azali hamda qita' va ruboiylaridan namunalarni o'rganish ko'zda tutilgan. Tashxis to'g'risida nazariy ma'lumot berilishi rejalashtirilgan. Ushbu dasturda 10-sinfda ham shoir ijodini o'rganish rejalashtirilgan bo'lib, 9-sinfda berilgan g'azallari mazkur sinf darsligiga takror kiritilgan.

2009-yilda chiqarilgan dasturda [Adabiyot fan dastur, 2017] Ogahiy hayoti va ijodi, uning g'azallaridan namunalarni o'qish hamda "Dahr uyi bunyodkim..." tarji'bandini o'rganish bilan birga "Ogohnoma" qasidasi matni ustida ishslash ham tavsiya etilgan.

Ogahiy haqida Bayoniy, Komil Xorazmiy, Feruz asarlarida, bir qancha tazkiralarda ma'lumotlar uchraydi. Xiva hududida yashagan bir necha avlod Ogahiyini ustozni komil sifatida ulug'laydi. Shaxsni barkamol bo'lib yetishishiga, eng muhimi, uning ma'naviy dunyosini boyishiga sabab bo'ladigan omillardan biri - bu badiiy adabiyotdir. Aslini olganda o'zbek milliy adabiyotimizning rivojlanishiga o'zining munosib hissasini qo'shgan, uni jahon miqyosida san'at darajasiga ko'targan buyuk siymolardan biri Ogahiy bo'lib, bu buyuk shoirning noyob asarlari, ayniqsa, ijtimoiy-siyosiy, falsafiy-didaktik hamda ishqiy mavzuda yozilgan g'azallari asrlar osha bashariyatning bebafo durdonasi, ma'naviy-ma'rifiy, axloqiy-estetik mulkiga aylandi. Ana shunday so'z san'atkoring noyob durdonalarini o'rganish, ayniqsa, Ogahiy siyemosini o'quvchilarga yetkazish ko'p jihatdan o'qituvchining ilmiy-nazariy bilimi, dars berish san'ati, aniqrog'i, shoir g'azallari, uning mavzu ko'lami va ularda aks ettirilgan lirik qahramonlar, ularning ruhiy kechinmalari, his-tuyg'ularini tahlil qilishga bog'liq. Bu jihatdan umumta'lim maktablari va akademik litsey o'qituvchilari adabiyot kursi bo'yicha darslikka ega bo'lganliklari holda, Ogahiy asarlarini o'rganish, tahlil qilish, ularni o'quvchilar ongiga yetkazishga oid adabiy-tanqidiy va metodik qo'llanmalarga ega emas, bunga ehtiyoj sezadilar. Umumiy o'rta ta'lim maktablari uchun o'quv rejasi davlat ta'lim standartlarining tarkibiy qismi bo'lib, ta'lim sohalarini me'yorlashni hamda makkabning moliyaviy taminotini belgilashga asos bo'ladigan davlat hujjatidir. Yuqori sinflarda yozuvchining tarjimai holi ijodiy faoliyati bilan bog'liq holda o'rganiladi. Bunday mavzuni o'rganishda o'quvchilarning diqqat-e'tibori yozuvchining adabiyot rivojida, jamiyatning ijtimoiy-siyosiy hayotida tutgan o'rniqa, ijodiy komolotining asosiy bosqichlariga jalb etiladi. Ogahiy lirkasini o'rganishda quyidagi muammolarga duch kelishimiz mumkin:

1. V - VIII sinf xrestomatiyalarida adabiy asarning badiiy qimmati va tili haqida, umumiy qoida tusiga kirib qolgan tartib bo'yicha, asosiy obrazlarga qisqa xarakteristika berilgach, kompozitsiyasi mohirona qurilgan, badiiy vositalardan yozuvchi unumli foydalangan, tili ravon kabi umumiy gaplar bilan chegaralanib, ular xarakterli faktlar orqali namoyish qilinadi, natijada o'quvchilarda barcha asarlar bir xilda yozilar ekan, degan tushuncha tug'iladi.

2. Darslikda asarning badiiy qimmati assosiy qismlardan uzib olingan holda tahlil qilinadi. Unda obrazlardagi ziddiyatni ochish o'rniqa, ularning ijtimoiy qiyofasi, asarda peyzaj tasviri, tili haqida gapiriladi. Ayrim darsliklardi yana muhim bir kamchilik shundaki, ularda klassik adabiyotdan olingan namunalar mazmuni yetarli, to'liq yoritilmagan.

3. V-VIII sinf darsliklarida adabiy tekstlar yuzasidan berilgan savol va topshiriqlar ko'proq asar mazmunini hikoya qilish, yodlashga qaratilgan bo'lib, o'quvchilarda mustaqil ishslash ko'nikmasini o'stirishga, asarning badiiyligini chuqur his etishga yetarli yordam bermaydi.

4. IX-X sinf darsliklaridagi eng muhim kamchilik yozuvchining badiiy mahorati, o'ziga xos uslubi, murakkab nazariy tushunchalarning yetarli yoritilmaganligi, obrazlarning badiiy vositalar orqali yetarli ochilmaganligida ko'rindi.

5. Darsliklarda, ayniqsa, adabiyot darsliklarining tili sodda, aniq, qisqa va ta'sirchan bo'lishi kerak. Mavjud darslik mualliflari bu masalaga ma'lum darajada e'tibor bergan bo'lsalar ham, darsliklarda o'quvchilar uchun tushunish qiyin bo'lgan jumlalar, bayonlar bor. Ularda tarixiy faktlar, joylar va kishilar nomi juda ko'pki, ularni esda qoldirish qiyin.

6. Yuqori sinf darsliklarida materiallarining ko'pligi darsda turli metod va usullarni qo'llashga imkoniyat bermaydi, sinfda esa ko'proq ma'ruza usuli hukmronlik qiladi.

O'quvchilarda Ogahiy shaxsi bilan bog'liq ma'lumotlar ma'lum bir ketma-ketlikda yig'ilib, metodist olim V.Qodirov aytganidek, "Ma'lumotlar birin-ketin berilar ekan, bir asar orqali



shakllangan bilim, ko'nikma va malaka keying namunalarda mustahkamlanib boradi. Natijada ma'lumotlar yig'ilib, yaxlit bilimga, orttirilgan ko'nikmalar rivojlanib shakllangan malakaga; his qilingan tuyg'ular bora-bora idrokka aylanadi. Anashu yaxlit bilim, shakllangan malaka tarbiyalanuvchi shaxsida birlashib, mumtoz adabiyotni anglash tajribasini yuzaga chiqaradi".

Foydalaniłgan adabiyotlar:

1. Husanboyeva R. Niyozmanova R. Adabiyot o'qitish metodikasi. O'quv qo'llanma.T.: Barkamol fayz mediya, 2018. - 49 bet.
2. Umumta'lim maktablari dasturi. O'zbek adabiyoti. (Tuzuvchi: U.Normatov va b.) Jumhuriyat o'quv-metodik markazi. -T., 1991.
3. Umumta'lim maktablari dasturi. O'zbek adabiyoti. (Tuzuvchi: U.Normatov va boshq.) T.: Universitet. 1992.
4. O'zbek adabiyotidan umumta'lim maktablari uchun dastur (V-XI sinflar uchun.Tuzuvch: Q.Yo'ldoshev. va boshq.) - T.: RTM-1999.
5. Sultonova Q. Madaminova N. Maktabda Ogahiy ijodini o'r ganish. -T., 2003.
6. Qodirov V. Mumtoz adabiyot: O'qitish muammolari va yechimlar. T.- O'zbekiston Milliy kutubxonasi, 2009.



## “DAHSHAT” HIKOYASIDA SO‘Z BADIYATI

*Sotvoldiyeva Sohibaxon Dadaxonovna  
Farg‘ona viloyati  
Uchko‘prik tumani 40-maktab  
ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi*

**Annotatsiya:** maqolada Abdulla Qahhorning o‘zbek tilining boy imkoniyatidan foydalanishi, “Dahshat” hikoyasi adib ijodidagi ahamiyati bo‘yicha fikrlar berilgan.

**Kalit so‘zlar:** chuqur g‘oyaviylik, yuksak badiiylik, Abdulla Qahhor hozirjavobligi

O‘zbek adabiyoti taraqqiyotiga katta hissa qo‘shtan Abdulla Qahhor o‘zining butun ijodiy faoliyati davomida turmushning pastu balandini, oqu-qorasini aks ettiradigan asarlar yaratdi. Iste’dodli adib eng oddiy, biz o‘zimiz duch keladigan, eshitib yurgan, jo‘ngina voqealar asosida xalq maqollari, iboralaridan ustalik bilan foydalangan holda shunday asarlar yaratdiki, uni o‘qib larzaga tushmay qolmaydi kishi. Abdulla Qahhorning turli janrlarda yaratgan asarlari o‘z davrida keng kitobxonlar tomonidan zo‘r ehtiros bilan kutib olingan va sevib o‘qilgan. YOzuvchi ijod maydoniga ilk qadam tashlashi bilanoq o‘zbek adabiyotining ma’naviy soffligi, chuqur g‘oyaviyligi, yuksak badiiyligi uchun hormay- tolmay xizmat qildi. Abdulla Qahhor nihoyatda hozirjavob yozuvchi edi. U hayotdagи yangilikni, yangi voqeani tez fahmlab olar va uni mahorat bilan xalqqa etkazib berardi. Yozuvchi qirq yil davomida adabiyot sohasida unumli ijod qildi. Bu vaqt ichida u yuzdan ortiq hikoya va feletonlar, bir qancha badiiy ocherk va tanqidiy maqolalar yaratib, o‘zbek adabiyotida yorqin iz qoldirdi. Uning “Dahshat” hikoyasi adib ijodida katta ahamiyatga ega. Hikoyadagi ba’zi bir notanishdek tuyulgan so‘zlar izohi bilan tanishib chiqsak:

Yelpishtovoq – don yelpishga mo’ljallangan katta yassi tovoq.

Dodxo – ariza kabul qiluvchi amaldor, mingboshi.

Xalqa – taroveh namozi qatnashchilarining ommaviy qur’onlik marosimi

Ponsot – askarboshi, qurboshi

Bovzant – ayollar sochiga taqiladigan bezak, sochpopuk.

Sag’ana – qabr ustiga qurilgan maqbara.

Yuqoridagi atamalarning ko‘pchiligi bizga noaniq bo‘lgan tushunchalardek ko‘rinadi. Lekin ushbu so‘zlarning hammasi tilimizda mujassamlashgan va hozirgi kunda boshqacha nom bilan yuritiladi. Bundan ko‘rinadiki, A. Qahhor asarlaridagi so‘z boyligining cheki yo‘q, ulardagi hech bir so‘zni tushunish mushkul emas, xalqona. Bu esa A.Qahhor sarlarining qadrini baland qilgan, shu paytgacha uning tasir kuchini zarracha bo‘lsada kamayishiga yo‘l qo‘ymagan muvozanatdir. Shuningdek, A.Qahhor asarlarida og‘izdan-og‘izga o‘tib kelayotgan xalq iboralari ham salmoqli qismni tashkil etadi. Misol uchun, “Dahshat” hikoyasidagi iboralarga diqqat qilsak, ular asar manzarasi, obrazlar tasviri bilan shu qadar uyg‘unlashib ketganki, jumlalar mazmunini yanada teranroq tushunishga yordam beradi. Asarda quyidagicha iboralar qo’llanganligiga guvoh bo‘lamiz:

1) Kafanligini sandiqqa solib qo‘ygan (ushbu ibora dodxoga nisbatan qo’llanilgan bo‘lib, keksayib, umri poyoniga yetayotgan insonlar uchun qo’llaniladi. Muqobil variant: bir oyog’I yerdá, bir oyog’i go’rda);

2) Tilidan sovuq ter chiqib ketdi(bu ibora ham Olimbek dodhoning qabristonni o‘ylagan paytidagi qo‘rquv va hayajonini tasvirlash uchun ishlatilga. Xalqimizda bunga mos tarzda tiligacha muzlab ketdi iborasi ham qo’llanadi);

3) Hamma o‘tirgan joyida bir qarich cho’kkanday bo‘ldi(bu ibora shamol tobutga yopiladigan allaqanday eski bo‘yrani derazaga urgan paytidagi asar qahramonlarining qo‘rquv holatini yaqqol-roq tasvirlash maqsadida qo’llangan )

4) Hammaning eti jivillashib ketdi;

5) Dami ichiga tushib ketdi va boshqa shu kabi iboralardan yozuvchi obrazlar ta’rifiga o‘zgacha urg‘u berish uchun foydalangan.

A.Qahhor hikoyalari shartli ravishda uch yo‘nalishga ajratish mumkin: tarixiy, hajviy, zampnaviy hikoyalari. Abdulla Qahhorning “Xotinlar”, “Asror bobo”, “Ming bir jon”, “Mahalla” kabi hikoyalari zamondoshlarining ma’naviy dunyosini, insoniy xislatlarini, axloqiy pokligini, ruhiy go‘zalligini ko‘rsatishga alohida e’tibor bergen. U hikoyalari xalq maqollaridan, afsona va



rivoyatlaridan, matallaridan o`rinli foydalangan.

“Dahshat” hikoyasida Unsining “O`g`ri”dagi Qobil bobo, “Anor”dagi Turobjon, “Bemor”dagi Sotiboldidan farqi shuki, u o`z salaflariga o`xshab mute’lik asirasi va jaholat qurboni bo`lib yashashni istamaydi. Olimbek dodhoning sakkiz xotini ichida eng kichigi – bu dargohga tushganiga besh oygina bo`lgan kelinchak – Unsin agar eri butunlay javobini bersa, Ganjiravonga- o`z uyiga ketmoqchi bo`ladi. Dodxoning katta xotini Nodirmohbegim bir voqeani aytib berayotganda gap orasida inson erki bitta qo`yga teng emasligi haqida Unsin aytgan fikrlarni eshitgach, dodho Unsinga erkka erishishi uchun qabristonda choy qaynatib kelishini aytadi va shu o`rinda jasorat va qo`rquv o`rtasidagi asosiy kurash tasvirlanadi, ammo hikoya nihoyasida Unsin qattiq qo`rquv natijasida vafot etadi, va nihoyat erkka erishadi.

Adabiy ta’limda o’quvchilarning asar yuzasidan mustaqil fikr yuritishlari, zaruriy xulosaga kela olishlari juda muhim sanaladi. O’quvchi badiiy asar matni bilan tanishar ekan, unda tasvirlanyotgan voqealari bilan tanishishga ega bo’lganligi, asar timsollarining xati-harakatlariga xolis munosabat bildira olishi; badiiy timsollarining voqealar tasviridan keyingi hayoti, turmush tarzi, istiqboli to’g’risida ham bashorat qila olishlari, shubhasiz, badiiy asarning kitobxon qalbidagi ikkinchi umrini ta’minlaydi, o’quvchining badiiy idroki shakllanib borayotganidan dalolat beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirtojiev M. O’zbek tilida polisemiya. -T.: Fan, 1975. -140 b.
2. Rahmatullayev Sh. Hozirgi adabiy o’zbek tili. Toshkent, “Universitet”, 2006.

**"ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ТАДҚИҚОТЛАР"  
МАВЗУСИДАГИ РЕСПУБЛИКА 23-КҮП ТАРМОҚЛИ  
ИЛМИЙ МАСОФАВИЙ ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИЯ  
МАТЕРИАЛЛАРИ**

**(8-қисм)**

**Масъул мухаррир:** Файзиев Шохруд Фармонович  
**Мусаҳҳих:** Файзиев Фаррух Фармонович  
**Саҳифаловчи:** Шахрам Файзиев

Эълон қилиши муддати: 31.12.2020

**Контакт редакций научных журналов.** tadqiqot.uz  
ООО Tadqiqot, город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Тел: (+998-94) 404-0000

**Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz**  
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Phone: (+998-94) 404-0000